

## TOG‘AY MURODNING “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” QISSASINING KOMPOZITSIYA QURILISHI.

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakultetini birinchi kurs kunduzgi bosqich talabasi*  
**Mexribon Soliyeva Olimjon qizi.**

**Annotasiya:** *xalqimizning sevimli yozuvchisi Tog‘ay Murodning “ Oydinda yurgan odamlar “ qissasi bugungi- 21- asrning dolzarb masalasiga aylanib ulgurgan – ko‘p ajrimlilik muammosiga yechim topishda , bu muammoni kamaytirishda o‘z hissasini qo‘shadi. Undagi sabr – toqat , sadoqat, oila muqaddas dargoh ekanligini bevosita singdirishda o‘z xizmatini o‘tagan bir qator adabiy unsurlar muhim ahamiyatga ega. Personajlarning xarakteristikasidan tortib syujet qurilishi, matn kompozitsiyasiga berilgan ishlovlar kitobxonga yozuvchining nima demoqchi ekanligini , qanday yechim borligini anglashda ko‘maklashadi. Bunda muallif syujet unsurlaridan shu qadar ustalik bilan foydalanadiki, o‘quvchi ongida o‘sha davr voqealarini jonlantira oladi. Boshqa qahramonlar : Oymomo va Qoplanning hayot tarzini turli xil kiritma epizodlari orqali yana aniqroq tasvirlab beradi. Shu bilan birga , unga bog‘liq holda , Tog‘ay Murod asarda matn kompozitsiyasini mahorat bilan shakllantirganligi tufayli insonlar o‘qish jarayonida hech qanday to‘siq, qiyinchilik va muammolar bilan yuzma-yuz kelmaydi. Bu qissada kompozitsiyaning barcha unsurlaridan samarali ravishda foydalanilgan va bu asarning ta‘sirchanligini , qiziqarli ekanligini ta‘minlab beradi. Davrlarning ketma-ketligi, voqeahodisalarning bir – birini izma – iz davom ettira olishi orqali qahramonlarning xayollari to‘g‘ridan to‘g‘ri real hayotga ko‘chadi. Asar shu qadar tartib bilan tuzilganki , o‘qirmon buni zavq – u shavq bilan o‘qiydi va hatto asar qahramonlari bilan birga yashaydi, ularning tuyg‘ularini his eta boshlaydi, yig‘lasa yig‘laydi , kulsa kuladi ..... Ko‘rinib turibdiki, bu yozuvchining buyuk iste‘dod egasi ekanligidan darak beradi. Bu maqolada aynan Tog‘ay Murod “ Oydinda yurgan odamlar” qissasida qaysi unsurlardan foydalangani va bundan tag ma‘no nima ekanligi ochiladi.*

**Annotation:** *the story “People walking on the moon” by our nation’s favorite writer Togay Murad has become an actual issue of today’s 21st century – it contributes to finding a solution to the problem of pluralism and reducing this problem. A number of literary elements are important in directly instilling in him that patience, loyalty, and the fact that the family is a sacred place.*

From the characteristics of the characters to the construction of the plot, the treatments given to the composition of the text help the reader to understand what the writer wants to say and what is the solution. In this, the author uses the elements of the plot so skillfully that the reader can revive the events of that time in his mind. Other Characters: The lifestyles of Oymomo and Koplan are further described through various introductory episodes. At the same time, due to Togay Murad’s skillful composition of the text in the work, people do not face any obstacles, difficulties and problems in the process of reading. In this story, all the

elements of composition are used effectively, and this ensures that the work is impressive and interesting. Through the succession of periods, the events can follow one another, the imaginations of the heroes are directly transferred to real life. The work is structured in such a way that the reader reads it with pleasure – he reads it with enthusiasm and even lives with the characters of the work, begins to feel their feelings, cries when he cries, laughs when he laughs..... Ко It seems that this writer is a great talent. This article reveals what elements Uncle Murad used in the story “People Walking on the Moon” and what is the meaning behind it.

Аннотация: повесть «Люди, идущие по Луне» любимого писателя нашего народа Тогаю Мурада стала актуальной проблемой сегодняшнего XXI века – она способствует поиску решения проблемы плюрализма и уменьшению этой проблемы. Ряд литературных элементов важен для того, чтобы непосредственно внушить ему терпение, верность и тот факт, что семья – это священное место.

От характеристик персонажей до построения сюжета, обработка композиции текста помогает читателю понять, что хочет сказать писатель и каково решение. При этом автор настолько умело использует элементы сюжета, что читатель может оживить в своем сознании события того времени. Другие персонажи: Образ жизни Оймому и Коплана далее описывается в различных вступительных эпизодах. При этом, благодаря умелому построению текста Тогаем Мурадом в произведении, люди не сталкиваются с какими-либо препятствиями, трудностями и проблемами в процессе чтения. В этом рассказе эффективно использованы все элементы композиции, благодаря чему произведение получается впечатляющим и интересным. Через смену периодов события могут следовать друг за другом, фантазии героев непосредственно переносятся в реальную жизнь. Произведение построено таким образом, что читатель читает его с удовольствием – он читает с увлечением и даже живет вместе с героями произведения, начинает чувствовать их чувства, плачет, когда плачет, смеется, когда смеется.... Ко Кажется, у этого писателя большой талант. В данной статье рассказывается, какие элементы дядя Мурад использовал в рассказе «Люди, идущие по Луне» и какой за этим смысл.

**Kalit so‘zlar:** *syujet qurilishi, kiritma epizodlari, personaj, qahramon, qahramon xarakteristikasi, kompozitsiya unsurlari, qoliplovchi hikoya, arxitektonika, bo‘lim, Fitrat va Florenskiy ma‘lumotlari.*

## KIRISH

“Oydinda yurgan odamlar” asari murakkab syujet va kompozitsiya qurilishiga ega. Shu bilan bir qatorda, ijodkor bu asarida emotsional va expressiv bo‘yoqlarda yetarlicha qo‘shgan va bu asarning yanada jozibaliligini ta‘minlab bergan. Takrorlanmas xususiyatlaridan yana biri shundaki, bu asarning boshlanish pallasida qahramon o‘zi bilan o‘zi suhbat quradi, va oxirgi qismi ham shunday yakun topadi. Ya‘ni buning tag zamirida Tog‘ay Murod asar yakunini kitobxonning o‘ziga havola etmoqda. Shubhasiz, bu insonni fikrlashga majbur etadi. O‘yga cho‘mdiradi. Adib xalq maqollaridan, qochirma, kinoya gaplardan ham asarga chimdimgina qilib qo‘shgank bois ham asarning ta‘mi juda ham shirin

chiqadi va bu ta'm kitobxon xayolotini , uning dunyosini ancha vaqtgacha tark etmaydi. Qumsayveradi , qumsayveradi, qumsayveradi... Asar bir nechta to'plam yoki hikoyalardan iborat emas , unda turli qahramon tilidan ham hikoya qilinmaydi . Asarning tili juda ham sodda va ravon yozilganki, buni o'qish uchun ilmiy daraja kerak emas, ammo uni idrok etish esa professorlarning ham qo'lidan kelishi amri mahol. Bu kitobni o'qigan shaxs o'zini hayotning bir qismini ya'ni turmushni ko'rgandek bo'ladi, bunday hollar tabiiy ravishda sodir bo'lishiga tayyor turadi va turmushni arz- dod bilan emas, o'zaro kelishuv , ishonch bilan yengib o'tishni ham o'rganadi.

Tahlil va natijalar.

Kompozitsiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib, kompozitsion – tuzish, tuzilish qurish , ,biriktirish degan ma'nolarni beradi . Boshqacha qilib aytganda , kompozitsiyaning lug'aviy ma'nosi yuqoridagidek ifodalanadi. Muallif nazarda tutgan ijodiy niyatni amalga oshirish uchun asarning qurilishini muayyan bir qonuniyat asosiga qurish nazarda tutilgan. Har bir badiiy yoki boshqa turdagi asar borki, unda o'z kompozitsiyasi bor . Uning asosiy vazifasi: badiiy niyat konsepsiyasini shakllantirish, optimal holda joylashtirish, butunlikka biriktirishdan iborat. Kompozitsiya ham o'z ichida bir qancha qismlarda ajraladi.

Kompozitsiyaning turlari

1: matn qurilishi kompozitsiyaning asosiy unsurlaridan sanaladi. Uning tarkibiga bob , am bilan belgilangan bo'limlar kiradi. 1. .... sodir bo'ldi. 2. Undan keyin..... ro'y berdi . Shunga o'xshash.

2.Badiiy nutq shakllari : bu esa ijodkor bu asarni qay holatda o'quvchi taqdim etganini ko'rsatuvchi unsur hisoblanadi- dialog , hikoyalash va tavsif. Tog'ay Murod esa o'z nutqidan hikoya qilgan . Buni siz – u biz bosh qahramonlar Oymomo va Qoplanni momo va bobo deb gapirishidan anglasak bo'ladi.

3.Syujet qurilishi: badiiy asardagi ketma ketlik- sabab , natija davr. Bu asarda esa konsentrik deb oladigan bo'lsak, o'zaro qorishqlik deb atasak , asarning yakuni Qoplanni otamiz tilidan tugaydi.

4. Nuqtayi nazar: Roviyy va personaj nigohi orqali . Bunda eshitganini so'zlaydi . Kimdandir eshitgani haqida so'z bormoqda.

5. Personaj sistemasi:asosiy ( bosh) va yordamchi qahramonlar. Bunda Oymomo onamiz va Qoplanni otamiz – bosh qahramonlar bo'lsa , Ularning atrofidagi personajlar yordamchi qahramonlardir. Misol uchun, Rais, Xolbek, Robiya va shu kabilar.

Asar qurilishida ishtiroki etayotgan asar qismlari (qism , bo'lim...) bularning jamlanmasi umumiy nomi ilmiy manbalarda arxitektonika deb ataladi. Bunda asosiy qism: kompozitsiya, birlashtiruvchi qism: arxitektonikadir.

Kompozitsiya ( arxitektonika( qism bo'lim, akt , sahna....)

Arxitektonika yunoncha so'z bo'lib , uning lug'aviy ma'nosi qurilish san'ati va badiiy asar qurilishidagi mohiyat degan ma'noni Badiiy asar qurilishidagi qonuniyatlar kompozitsiya bo'lsa , arxitektonika uning asosini tashkil qiladigan voqea – hodisani birikuvidan hosil bo'ladi. Misol uchun , Yirik nashriy asarlarda bo'lim , qism , bob, fasl . Dramaturgik asarlarda esa parda , akt , ko'rinish, sahna).Ma'lumotlarga ko'ra bu atamani P.A.Florenskiy konstruktsiya atamasi o'rnida ishlatgan

Fitrat syujetni tartib , kompozitsiyani esa tarkin deb ataydi.

Kompozitsiya unsurlari:

Qoliplovchi hikoya: “ Sab’ayi sayyor” , “ Dilorom va Bahrom” .

2.Lirik chekinish: boshqa voqealarni kiritib ketish, G’afur G’ulomning “ Sen yetim emassan she’rida , “ Yetimlik neligin bizlardan so’ra”.Bu dunyoda o’lib bo’lmaydi asari esa turli xil tarixiy voqealarning keltirilishi, xususan, So’fi Ollayor hikoyasi.

Kiritma epizodlari: asarning voqealariga aloqasiz bo’lgan epizodlarni kiritish. Bu unsur “ Oydinda yurgan odamlar” qissasida uchramaydi. Negaki , asar voqealari bir biriga ipsiz bog’liq.

O’zbekiston xalq yozuvchisi , kitobxonlarning suyuqli adibi- Odil Yoqubovning bu asarga nisbatan bergan fikr va mulohazalari bilan tanishib chiqsak: “ Tog’ay Murodning birgina “ Oydinda yurgan odamlar “ degan qissasida , yanglishmasam, adibga xos bo’lgan fazilatlar yana- da yaqqolroq seziladi. Asar nima haqida? Bir qarashda qissa adabiyotimizda ko’p aytilgan farzandsizlik muammosiga bag’ishlangandek tuyiladi. Aslida , unday emas. Aslida , uslub jihatidan xalq dostonlariga o’xshab ketadigan bu qissani muhabbat haqida bir kuy , to’g’rirog’i, muhabbatga suyanib , barcha hayot dovullarini yengib o’tgan ikki dil, ikki pok inson haqidagi tipik bir qo’shiq, desak yarashadi”

Asarning qurilishiga yanada chuqurroq sho’ngiydigan bo’lsak, asar yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, adib tomonidan hikoya qilinadi. Adib o’z qahramonlarini shu darajada qattiq hurmat qiladiki, ularni shunchaki , Qoplon yoki Oymomo deb atamaydi. Ularni yoshi jihatidanmi yoki hurmat yoki mehri sabablimi “momomiz” va “ otamiz” deb hikoya qiladi. Bu esa o’z o’rnida kitobxonning ham qahramonlarga nisbatan munosabati keskin oshadi. Ularni xayolida boshqa ko’rinishda gavdalantiradi.

Asarda , bir nechta asarga aloqador bo’lgan hikoyalar ham mavjud. Navro’z hikoyasi, Sumalak hikoyasi, So’fi Olloyor hikoyasi va shunga o’xshashlar. Bularni asarga qo’shishdan yozuvchining maqsadi nima?! Asl maqsad esa o’quvchiga aytayotgan ma’lumotlarini yanada aniqroq va to’laqonli tushuntira olishdir.

Asar umumiy beshta bo’limdan iborat va ular o’zaro bir birini yetaklab yoritadi. Bo’limlar asarning mag’zini chaqishda qo’l keladi.

Asarda ikki qalbning sabri , matonati va muhabbati sinaladi. Ular xalqning ,hatto oilasining nadomatlari orasida qolsa ham oiladan kechmaydi , yuz o’girmaydi. Ayniqsa ,qo’shnilarning og’ir gaplari , umid bilan qancha tabiblarga borgani, ziyorat joylarni ziyorat etgani , Qoplon otanmizga uch marotaba Hizr ko’ringani kitobxon xayolini tark etmaydi . Asarda o’sha tuzumning chirkin insonlariga ham alohida to’xtalib o’tadi. Masalan, “Yetim haqqini yegan sizdek odamlar bilan bir tovoqdan osh yemayman men” – Qoplon otamiz nutqidan. Bu asarda o’zbeklarning ajoyib jihati ham e’tirof etilgan. Ayollar turmushidan arazlama yoxud muammo bolsa darrov ota uyiga borishadi. Bu ham yozuvchining donoligi va e’tiborliligidan darak beradi.

Xulosa:Asar syujet va kompozitsiya qurilsh jihatdan ham , mazmun va mohiyatdan ham , o’zbek xalqining urf-odatlari keltirilganligi , sabr matonat nima ekanligini qahramonlar hayoti bilan yoritilganligi bois ham e’tiborga loyiqdir. Asar juda ham takrorlanmas chiqqan. Va nomi ham o’ziga mos. Oydinda yurgan odamlar: ikki yosh sevishgannning suhbatlari , oydin

paytida , Oymomo momoni eshlari . Asarning kulminatsion nuqtasi shuki , Oymomo onamizning vafotlari . Kitobxon uning boshi aylanishi , hushsiz bo'lishi va ko'ngil aynishi orqali farzdanli bo'g'ar ekan degan fikrda bo'ladi , ammo yozuvchi uni boshqa yerlarga olib ketadi. Bu uning vafot etishidan darak edi , afsuski.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Tog'ay Murodning Oydinda yurgan odamlar" qissasi.
- 2.Dilmurod Quronovning " Adabiyot nazariyasi asosari " kitobi .
- 3.Aristotelning " Poetika " kitobi.